

I



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2024 - yil 1 - mart

63-10-0-F/24

Toshkent viloyati hokimiligi

Parkent tumanidagi “Quyoshli” va “Navro‘z” mahallalaridagi ko‘p qavatli uy-joylarni issiqlik energiyasi bilan ta‘minlash xarajatlari uchun mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 12-fevraldagi VI-86-13-10-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Parkent tumani hokimligining 2024-yil 11-yanvardagi 1/07-sonli xati, viloyat hokimligi kotibiyati mudiri M.Xudoyqulovning bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

1. Viloyat mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan Parkent tumanidagi “Quyoshli” va “Navro‘z” mahallalaridagi ko‘p qavatli uy-joylarni issiqlik energiyasi bilan ta‘minlash xarajatlari uchun Toshkent viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasiga 2 600,0 mln. (ikki milliard olti yuz million) so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (F.Xudoyberdiyev) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta‘minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi (S.Sodiqov) ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlasin.

4. Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (E.Abduvaliyev) ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlasin.

5. Viloyat davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6. Mazkur farmoyish ijrosini ta‘minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari

A.Abdullayev hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Maxmudovlar zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev